**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

*Pedagogika va jismomiy madaniyat fakulteti* 5141600-*Boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo’nalishi bitiruvchisi*

**Hakimova Nazira Nurmuxammedovnaning**

***“****Matematika darslarida geometrik elementlarini o’rgatishda komp’yuter texnologiyalardan foydalanish****”***

mavzusida yozgan

# Bitiruv malakaviy ishi

Namangan 2012

**Mavzu: Matematika darslarida geometrik elementlarini o'rgatishda komp'yuter texnologiyalardan foydalanish.**

## Reja:

**Kirish.**

**I bob. Boshlang'ich sinflardagi Matematika darslarida geometrik elementlarini berilishi.**

1.1. 1-sinf Matematika darslarida geometrik elementlarni berilishi.

1.2. 2-sinf Matematika darslarida geometrik elementlarni berilishi.

1.3. 3-sinf Matematika darslarida geometrik figuralarni berilishi.

1.4. 4-sinf Matematika darslarida geometrik elementlarni berilishi.

**II bob. Boshlang'ich sinflardagi Matematika darslarida geometrik elementlarini o'rgatishda komp'yuter texnologiyalardan foydalanish.**

2.1. 1-sinf Matematika darslarida geometrik elementlarni komp'yuter texnologiyalari yordamida o'rgatish texnologiyasi.

2.2. 2-sinf Matematika darslarida geometrik elementlarni komp'yuter texnologiyalari yordamida o'rgatish texnologiyasi.

2.3. 3-sinf Matematika darslarida geometrik figuralarni komp'yuter texnologiyalari yordamida o'rgatish texnologiyasi.

2.4. 4-sinf Matematika darslarida geometrik elementlarni komp'yuter texnologiyalari yordamida o'rgatish texnologiyasi.

**III. Tajriba – sinov ishlari.**

**IV. Xulosa.**

**V. Foydalanilgan adabiyotlar.**

**VI. Internet materiallari.**

## Annotatsiya.

Bitiruv malakaviy ishi “Matematika darslarida geometrik elementlarini o’rgatishda komp’yuter texnologiyalardan foydalanish” mavzusida bo’lib, bugungi kunning dolzarb muammolardan biri ta’lim tizimida komp’yuter texnologiyalardan foydalanishga bag’ishlangan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida boshlag’ich sinflarda matematika fanini o’qitishda geometriya elementlarini tushuntirish, dars jarayonida zamonaviya komp’yuter texnologiyalardan foydalanish uslullari kabi masalalarni ochib berish ko’zda tutilgan.

.

**KIRISH**

**Mavzuning dolzarbligi.**

O'quvchilarga egallagan bilim o'quv malakalarini turli xil sharoitlarda turli xil qo'llanishga o'rgatishni o'qitishning maxsus masalasi sifatida qarash kerak. Bu oquvchilarning politexnik tayyorgarligiga qaratilgan ishning boshlanishidir. Boshlang'ich maktabdayoq o'quvchilarda kuzatish va taqqoslash, solishtirilayorgan hodisalardagi o'xshashlik va farq qiladigan tomonlarini ajratish, tahlil, sintez, umumlashtirish, abstraktsiyalash, aniqlashtirish kabi funksiyalarini amalga oshirish uchun ko'p ish qilishi kerak.

Bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to'g'ri, aniq, qisqa matematik nutqni o'stirish masalasi uzviy ravishda bog'langandir. Bu o`quvchilarda geometrik tushunchalar asosida fikirlash asosida amalga oshiriladi.

Bu boshlang'ich ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi ham aynan shunda. Xuddi shu masalalarga bir oz bo'lsa ham oydinlik kiritishdadir, ya'ni o'quvchilarni geometrik elementlarni tushuntirish malakalarini ta'lim jarayonida olib borish boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni bir oz bo'lsa ham yengillashtiradimi? Bolalarni maktabda boshlang;ich sinflardan keyingi sinfga o'tishiga vujudga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etadimi? Bu savollar metodikamizda o'zining javobini topmagan. Mavzuning dolzarbligi shu bilan harakterlanadi.

Adabiyotlarda ushbu mavzu uchun yetarlicha ma'lumotlar yo'qligi tufayli topilgan javob va bir oz bo'lsada kiritilgan oydinlik matematik nutqni o'sitirish va geometrik elementlardan o'rnida foydalanishga yordam beradi degan umiddaman.

Ba'zi o'quvchilar fanni o'zlashtira olmasliklari oqibatida orqada qolishlari mumkin. Bunday o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish maqsadida biz qiziqarli misol va masalalardan turli xil geometrik yasashlardan foydalanamiz.

Natijada asta-sekin qiziqishlari orta boradi. Shu bilan bir qatorda muakammalroq bilim olinadi.

Matematika faniga qiziqishlarini oshirish yanada mukammalroq bilim olishlari uchun turli to'garak mashg'ulotlarining o'rni beqiyos deb hisoblayman.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.**

Bitiruv malakaviy ish quyidagi maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'yadi:

boshlang'ich sinf matematika kursini o'qitish jarayonida geometriya elementlarini zamonaviy komp'yuter texnologiyalar yordamida bolalarga tushuntirish.

Nuqta haqida tasavvurga ega bo'lish, to'g'ri chiziq va kesmani farqi, kvadrat va to'g'ri to'rtburchaklarni farqlash, ularning eng umumiy xossalarini aniqlashda komp'yuter texnologiyalardan foydalangan xolda tushuntirish o'qituvchiga xam oson, o'quvchilar xam kengroq tassavurga ega bo'ladilar. Bizning maqsadimiz geometrik shakllarni, ularning xossalarini o'rgatishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish uslubini ishlab chiqish. Bunda Power Point dasturida geometriya elementlarini o'rgatish uchun turli effekt va animatsiyalardan iborat taqdimotlar yaratishdir.

Boshlang'ich ta'limning har bir sinf matematika darslarida o'tiladigan geometriya elementlarini kompyuter texnologiyalari asosida tushunturish bolalarga geometriya elementlari haqida to'laroq tassavurga ega bo'lishi, sodda va rangli figuralarni ko'rib fanga bo'lgan qiziqishlari ortishiga olib keladi.

Biz yurtimiz osoyishtaligi va vatanimiz ravnaqini, xalqimizning farovon hayotini va yorug' kelajagini ta'minlash uchun o'z oldimizga qo'ygan buyuk marralardan, xalqimizning hoxish-irodasi bilan tanlab olgan mustaqil taraaqqiyot yo'lidan hech qachon qaytmaymiz va o'z yuksak maqsadlarimizga albatta erishamiz. Bizga Allohning o'zi doimo madadkor bo'layotganiga, yo'limizni ochib berayotganiga bugun barchamiz ishonch hosil qilmoqdamiz va buning uchun ming bora shukronalar aytamiz.

Mustaqillik yillarida el-yurtimizning fidokorona mehnati bilan biz barcha sohalarda katta yutuqlarga erishdik. Hozirgi kunda yurtimizda yashayotgan har qaysi inson, millati, tili va

dinidan qat’iy nazar, bu yutuqlarda mening ham munosib hissam bor, deb boshini baland ko’tarib yashashga albatta xaqlidir.

Bugungi kundagi hurmatli yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan ta'lim soxasiga qaratilayotgan et'iborga butun dunyu tam bermoqda. Mustaqillikka erishgan kundan boshlab toki xozirgi kungacha ta'lim soxasida qilingan isloxotlar taxsinga loyiq.

Bu natijalarga erishish uchun o'z vaqtida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kardlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinganligidadir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida belgilab berilganidek, "Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oily ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir".

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga integratsiyasi ta'lim sohasida nafaqat yangi imkoniyatlarni ochdi, balki o'quvchi yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda yuqori sifatga erishishni ta'minlashni taqozo etmoqda. Bundan kelib chiqqan holda uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri yuqori intelektual salohiyatga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash, bunda, albatta ta'lim sohasida erishilgan boy tajriba, progressiv ilmiy-texnik yutuqlar, zamonaviy ta'lim, axborot va kommunikatsion texnologiyalarga tayanish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Ta'lim tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da matematika o'qitishning sifatini oshirish bilan birga o'quvchilarning tafakkuri va shaxsiy sifatlarini, matematik savodxonligining shakllantirish hamda ijobiy qobiliyatlarini o'stirish masalalari belgilab berilgan[1]. Dastur matematik tushunchalarning hayotiy materiallar asosida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha va qoidalar amaliyotga xizmat qilishini hayotiy materiallar asosida vujudga kelganligini o'quvchilarga yetkazib berish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda fan va amaliyot o'rtasidagi aloqalarni to'g'ri tushunishga asos yaratadi. O'rta maktab ta'lim tizimiini isloh qilish jadal surratlar bilan olib borilayotgan hozirgi davrda maktab matematikasining mazmuni jihatdan ko'rib chiqish zamon talabi bo'lib, o'quvchilarning bilim va malakalarini jahon talablari darajasida bo'lishi talab qilinadi. Buning uchun esa boshlang'ich sinfdanoq har tomonlama yetuk insonlar tayyorlashga harakatni boshlash lozim. Bunda esa dars jarayonlarida zamonaviy komp'yuter texnologiyalaridan foydalanish zarurdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzasida farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmizni alohida qayd etib o'tgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 23 maydagi "2001-2005 yillarda Komp'yuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, "Internet"ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqish, tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Komp'yuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kelgusidagi rivojlanishi haqida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining "2002-2010 yillarga mo'ljallangan o'rta ta'lim tizimini axborotlashtirish dasturi" to'g'risidagi qarori (№200, 06.06.2002 y.) bu borada amalga oshiriladigan ishlarning mazmuni, ko'lami va yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu qarorlarni bajarish maqsadida Xalq ta'limi vazirligining 2011 yil 9 iyundagi "Umumta'lim maktablari uchun 2011-2012 o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 123-sonli buyrug'iga ko'ra, 2-4-sinflarda o'quv rejada belgilangan maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan haftasiga bir soat, yil davomida esa jami 34 soat hajmda ingliz tili yoki informatika darslarini etarlicha shart-sharoit yaratilgan, malakali kadrlar bilan ta'minlangan maktablardagina o'tish tavsiya qilinmoqda.

Boshlang'ich matematika kursini natural son va nol, butun musbat sonlar ustida to'rt arifmetik amal hamda ularning asosiy xossalarini aniq tasavvurlar va bilimlarga asoslangan

---

[1] Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 1997y 29 avgust. 9-bet.

og'zaki, yozma va taqdimotlarda namoyish etilgan ko'rgazmalar asosida hisoblash usullarini ongli va puxta o'zlashtirisni tashkil etish, shuningdek, jadval hollaridagi hisoblash malakalarini avtomatizm darajasiga yetkazilishini tashkil etadi. Matematik tushunchalarning hayotiy materiallar asosida tayyorlangan taqdimotlar yordamida o'zlashtirilishini ko'zda tutadi. Bu esa darsda o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan tushuncha va qoidalar amaliyotga xizmat qilishini hayotiy ehtiyojlar natijasida vujudga kelganligini o'quvchilarga yetkazib berish imkonini beradi hamda fan va amaliyot orasidagi aloqalarini to'g'ri tushunishga asos yaratadi. Matematika bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishda imkon beradi. Shuningdek, matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini oshirishi, ularning fikrlarini aniq to'g'ri va tushunarli bayon etish uchun zamin hozirlaydi. O'quvchilarning vazaifasi bolalarga matematikani o'qitishda bu imkoniyatlardan foydalana olishdan iborat. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda xaftasiga 5 soat vaqt ajratiladi. O'quv materiallarini sinflarda taqsimlashda o'rganilayotgan sonlar va ular bilan arifmetik amallarni bajarish doirasi asta-sekin kengaytirib borishi nazarda tutiladi.

Matematika bilan shug'ullanish nafaqat aqliy tafakkurni rivojlantiradi, balki o'quvchilarning mehnat tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. O'qituvchi esa o'quvchilar ishini, ularning o'quv faoliyatini har birini qoniqtirladigan qilib yo'naltirib pedagogik taktikaga ega bo'lish va mezonini sezishi kerak bo'ladi.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida 2010 yilning "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinganligi bilan bolalar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, ularni barkamol rivojlantirishni huquqiy asoslarini mustahkamlashga yaratilgan me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, amaldagi qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga zamon talablariga mos o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish: "Sog'lom ona – sog'lom bola" dasturini izchil amalga oshirish asosida sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish, onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, profilaktikaga asoslangan sog'liqni saqlash aholi o'rtasida tushuntirish haqida maslahat ishlarini kuchaytirish: tayyorlanayotgan mutaxassislarga real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi mavjud talabga alohida e'tibor qaratgan holda, o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasidagi moddiy-texnika bazani yanada mustahkamlash, undan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish: ta'lim jarayonida yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni elektron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablari, kasb-hunar kollejlari, litseylari va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv labaratoriya bazasini zamonaviy turdagi o'quv va labaratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, ilm-fan yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi fikrlarni aytib o'tganlar[2]. {I 5 6 b}

Boshlang'ich maktablarda matematika ta'lim o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallayotgan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarida qo'llash hamda ta'limning ikkinchi bosqichiga o'qishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Matematika bo'yicha standart ko'rsatkichlari bolalarga natural sonlar va nol to'g'risida tasavvurini shakllantirish, puxta xisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, amaliy masalalarni yechishga natural sonlar va arifmetik amallarni qo'llay olishga o'rgatish eng sodda geometrik

---

[2] „Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi".
Xalq so'zi gazetasi 2011 yil 22 yanvar. 1-bet.

shakllar, ularni tekislikda tasvirlash xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish hamda og'zaki hisoblash va matematik munoabat belgilaridan foydalana olish malakasini hosil qilish nuqtai nazardan izohlanadi. Geometriya elementlarini tushuntirish jarayonida komp'yuter texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda katta ta'surot qoldiradi.

"Ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni elektron darsliklar multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, litseylari va oily o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash ta'lim muassasalarining o'quv labaratoriya bazasini zamonaviy turdagi o'quv va labaratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylar mehnatni moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha samarali tizimni yanada rivojlantirish: zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarni, raqamli va keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda Internet tizimi yanada rivojlantirish ularni har bir oila hayotiga joriy etish va keng o'zlashtirish;

yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash bolalar sportini rivojlantirish sohasida yoshlarni ayniqsa, qishloq qizlarini sport bilan muntazam shug'ullantirishga keng jalb etish, yangi sport majmualarini, stadionlar va inshootlarni qurish, ularni zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta'minlash, yuqori malakali ustoz va murabbiylarbilan mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil kuchaytirish;

iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning muhim yo'nalishi aholi va o'rta sinf mulkdorlari daromadlarini shakllantirish asosi bo'lgan kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish, bu sohadagi mavjud, muammolarni hal etish, yoshlar, avvalambor, kasb-hunar kollejlari va oily ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ayniqsa, qishloq joylarda tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish uchun sharoit yaratish;

ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

yosh oilalarga g'amxo'rlik qilish ishlarini kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash, jismonan va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ham vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash bazasida jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan sog'lom va mustahkam oilani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

yoshlar o'rtasida sog'lom turmush-tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tadbirlar hamda biz uchun yod bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, tubdan "Ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoya qilishga doir komlpeks chora-tadbirlarni amalga oshirish."[3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 9 dekabrdagi 3329-farmoyishiga binoan tuzilgan Respublika komissiyasiga "Barkamol avlod yili" davlat dasturi bajarilishini tashkil etish va uning ijrosi monitoringini amalga shirish vazifasi yuklansin. Demoktratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.

O'zbekistonda bugungi kunda 22 vazirlikka qarashli 268 o'rta maxsus bilim yurti, texnikum mavjud va ularda 170 mingga yaqin bolalarimiz o'qimoqda.

Bunday o'quv muassasalari ishini ham, avvalambor, ularning samarasini bozor iqtisodiyoti va zamon talabi nuqtai nazaridan qarab chiqishimiz lozim.

Qisqa qilib aytganda hayotimizning o'zi ularning o'rniga zamon talab qilayotgan butunlay yangi tarkibdagi va yagona uslubdagi zamonaviy o'rta maxsus kasb-hunar va oily oq'uv yurtlarini tashkil qilishni taqozo etmoqda.

Eng muhimi, o'rta pag'onada yangi tashkil qilinayotgan o'quv muassasalarining oldingi

---

[3] Mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish- taraqqiyotimizning muhim omilidir
Xalq so'zi gazetasi 2011 yil 22 yanvar. 2-bet.

bosqichi umumta'lim maktablari va keyingi pog'onada turgan oiliy o'quv yurtlari tizimi bilan uzluksiz aloqa va munosabatlarini ta'minlash va zamon talabiga javob berish masalalariga alohida e'tibor qaratish darkor.

O'z vataniga sadoqatli, yuksak axloqli, aqlan va jismonan yetuk avlod har qanday davlatning faxri iftixoridir. Qolaversa, ana shunday o'g'il-qizlarni tarbiyalash, voyaga yetkazish mamlakatimizda yashab, mehnat qilayotgan o'qituvchi va murabbiylarning, ota-onalarning ham ezgu niyati. Axir yosh avlod barkamolligi – vatanning kelajakdagi mustahkamligida-da.

Amalga oshirilajak vazifalar qatoridan "yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash, bolalar sportini rivojlantirish sohasida, yoshlarni, ayniqsa, qishloq qizlarini sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish" kabi talablarning o'rin olgani nur ustiga a'lo nurdir. Avvalo biz "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qayta ko'rib chiqilgan DTS talablari asosida ishlab, o'quvchilarimizning bilim, ko'nikma, malakalarni egallashlarida yuqori samaradorlikka erishdik. Qolaversa, farzandlarimiz ongiga quyi sinflardanoq tejamkorlik, kichik biznes, tadbirkorlik tushunchalarini singdirishga harakat qilyapmiz. Prezidentimiz Islom Karimov 2011 yilni "Kichik biznes va tadbirkorlik yili" deb e'lon qilar ekan: "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – jamiyatimizning, bugungi va kelajak taraqqiyotimiz, farovon hayotimizning mustahkam tayanchi bo'lishi shart", deya ta'kidladi[4].

Demak, boshlang'ich sinfda o'quvchilarini har tomonlama rivojlangan mustaqil fikrlaydigan fazoviy tasavvuri yuksak bo'lgan holda o'qitishni taqozo etadi.

---

[4] Karimov I.A. „O'zbekiston buyuk kelajak sari''.Toshkent 1996 y. 28-bet.

**I bob. Boshlang'ich sinflardagi Matematika darslarida geometrik elementlarini berilishi.**

**1.1. 1-sinf Matematika darslarida geometrik elementlarni berilishi.**

Boshlang'ish sinflar o'quvchilarning geometrik figuralar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

I bosqich – Bolalarda bo'lgan geometrik figuralar haqidagi umumiy tushunchalarni aniqlash.

II bosqich – O'quvchilar bilan amaliy ishlash asosida ularda geometrik figuralar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

III bosqich – O'rganilgan materiallarni xotirada mustahkam saqlab qolish uchun figuralar yasashga oid maxsus tanlangan mashq va masalalarni bajarish o'quvchilarda geometrik figuralar haqidagi umumiy tasavvurlari 10 gacha bo'lgan sonlarni o'rganish mavzusini o'tish davomida yana bir bor aniqlanadi.

Avval bunday figuralar aylana, uchburchak, kvadrat va boshqa materiallardan foydalaniladi. Unda o'quvchilar hisob-kitobni bunday figuralar yordamida, masalan, 2 ta kvadrat, 8 ta aylana, 6 ta uchburchak, katta yoki kichik uchburchaklar, qizil yoki zangori doiralarni sanash yo'li bilan olib boradilar[5]. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar matematikadan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

a) Sonlar va hisoblashlarga oid:
- sonlarni o'qish va yozish, ularni xona qo'shiluvchilarining yig'indisi ko'rinishidagi yozuvini tushunishi;
- sanoq texnikasini egallash to'g'ri va teskari tartibda sanash, juftliklar va o'nlik bilan sanash, sondan oldin va keyin keluvchi sonni aytish kabi;
- natural sonlarni o'zaro taqqoslash ">", "<" va "=" belgilarni to'g'ri qo'llash;
- sonlarni yozma qo'shish, uch xonali va to'rt xonali sonlarni ayirish, bir xonali va ikki xonali songa ko'paytirish va bo'lish;
- qo'shish ayirish, ko'paytirish va bo'lishning jadvalli hollari natijalarini bilish, murakkab bo'lmagan hollarda 100 ichida og'zaki hisoblashlarni bajara olish;
- "yig'indi", "ayirma", "ko'paytma" va "bo'linma" atamalari ma'nosini tushunish va sonli ifodalarni o'qishda ularni qo'llay olish;
- 2-3 amalli sonli ifodaning qiymatini topish;
- "… ta ortiq", "… ta kam", "marta ortiq", "marta kam" munosabatlarining ma'nosini tushuninsh va ularga tayangan holda sodda masalalarni yecha olish;
- Miqdorlar orasidagi bog'lanishlarni qo'llab, amaliy mazmundagi masalalarni yechish "yarmi", "uchdan biri", "to'rtdan biri" atamalari ma'nosini tushunish va ularni qo'llash, yordamida ulushlarni yozish, qoida va boshqa geometrik figuralar modelida 1/2, 1/3 larni ko'rsatish, amaliy mazmundagi masalalarni yechilishida sonning sulushini va ulushiga ko'ra sonni topa olish.

b) Geometrik figuralarga oid:
- rasmlarda kesma, uchburchak, to'rtburchaklar jumladan, to'g'ri to'rtburchak va kvadratlar, beshburchaklar va aylanani tanish;
- tevarak atrofdagi geometrik shakllarni tanish va topa olish;
- kesma uzunligini o'lchash, berilgan uzunliklardagi kesmani yasash, kesma uzunligini ko'z bilan chamalab o'lchay olish;
- chizg'ich va sirkuldan foydalanib to'g'ri to'rburchak, kvadrat, uchburchak va aylanalar yasay olish;
- ko'pburchaklar perimetrini to'g'ri to'rtburchak yuzini va kvadrat birliklardan tuzilgan figuralarning yuzini hisoblay olish;
- uzunlik (mm, sm, dm, m, km) va yuza (sm.kv, dm.kv, m.kv) o'lchovli birliklarini, ular orasidagi asosiy nisbatlarni bilish, ularni o'z o'rnida qo'llay olish.

Boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitishga haftasiga 5 soatdan vaqt ajratiladi.

---

[5] Bikbayeva N. U. V va boshaqalar. "Boshlang;ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent 1996 yil. 405-bet.

Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallar bilan ishlashdan asosiy maqsad o'quvchilarga to'g'ri chiziq, kesmali burchaklar, shakllar: uchburchak to'rtburchak, ko'pburchaklarning aniq ko'rsatmali tasavvurini berish shakllarning ba'zi xossalarini ko'rib chiqish va bu bilimlardan bolalarning uzunlik va yuzalarni o'lchay olish malakalarini egallashda foydalana olishini ta'minlashdan iboratdir.

Geometrik materialni o'zlashtirish jarayoni boshidan oxirigacha faol aniq va ko'rgazmali bo'lishi, amaliy mashqlardan keng foydalanishi kerak.

Bunda o'quvchilar tayyor geometrik shakllar bilan ish olib bormay, balki, qirqish, yelimlash, cho'plar bilan ishlash, modellahtirish, chizmachilik, qog'oz varag'ini buklash orqali shakllar hosil qilish kabilardan foydalangan holda o'zlari ham shakllarni chizmalardan va atrof – borliqdan taniy olishlari, yasay bilishlari ham kerak. Bunda o'quvchilarga namoyish etilgan taqdimotlar katta axamiyatga ega bo'ladi.

Geometrik material ko'pincha qaralayotgan arifmetik qonuniyatlar, bog'lanish va aloqalarning aniq ko'rgazmali illyustratsiyasi bo'lib xizmat qiladi, masalan to'g'i to'rtburchakning teng qismlariga bo'lingan ko'rgazmali tasviri ko'paytirishning o'rin almashtirish qonununi namoyih qilush uchun qo'llaniladi.

O'quvchilarga geometrik materiallarni o'rgatishda quyidagi bilim va malakalarga ega bo'lishi kerak.

- I-IV sinflar uchun matematika kursi bo'yicha geometrik materiallarni o'rganish vazifalarini;
- matematika boshlang'ich sinflarga kiritilgan geometrik harakterdagi masalalarni hamda ularni o'rganish tartibini;
- geometrik materiallar bilan tanishuv tufayli o'zlashtirishga xizmat qiluvchi arifmetik masalalarni;
- geometrik tasavvurlarni shakllantirish metodlari va usullarini;
- o'quvchilar tomonidan yechish jarayonida geometrik harakterdagi masalalarni o'zlashtirib olishga xizmat qiluvchi mashqlarni;
- geometrik materiallarni o'rganish davomida foydalaniladigan ko'rgazmali qo'llanmalar va didaktik o'yinlarni;
- geometrik mazmundagi masalalarning o'zlashtirilishining, tekshirishning turlicha ko'rinishlari, shakli va usullarini bilishi kerak;
- o'qitish davomida geometrik elementlar bo'lgan arifmetik materiallarning o'zaro aloqasining tadbiq etishni bilishi;
- geometrik tasavvurlarni shakllantirish metod va usullarni maqsad sari yo'naltirib, qo'llay olish;
- geometriya elementlari bo'lgan mashqlarni tanlab ola bilishi va maqsad sari yo'naltira olishi;
- geometrik misollarni o'rganishga xizmat qiluvchi ko'rgazmali qo'llanmalar va didaktik o'yinlardan foydalana olishi;
- geometriya elementlarini o'zlashtirishning, tekshirishning turlicha ko'rinishlarini, shakl va usullarini qo'llay olishi;
- tekshiruv maqsadlariga mos sinov topshiriqlari va mustaqil ishlarini tuza olish kerak.

Boshlang'ich sinfda geometriya darslarida o'quvchilarga asosan nuqta, kesma, siniq chiziq, to'g'ri chiziq, ko'pburchak, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak, aylana, doira, shar, kub kabi tushunchalar o'rganiladi.

Har qanday geometrik shakl nuqtalar to'plamidan iborat. Geometriya faniga o'z hissalarini qo'shgan yurtdoshlarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek va ularning shogirdlari o'z asarlari va ilmiy natijalari bilan boyitishganlar. Geometriya turli shakllarning xossalarini aniqlash, tekshirish, ularning uzunliklari yuzi, hajmlarni hisoblash bilan shug'ullanadi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida geometrik tasavvurni shakllantirishda ma'lum shakldagi real predmetdan uning tasviriy tomon va aksincha tasavvurdan real predmet sari

bormoq kerak.

Geometrik elementlarni o’rganishda quyidagi modellardan masalan: geometrik modellashtirishdan foydalanish, qog’oz cho’plar, plastilin va simlardan figuralarning modellarini yasash, qog’ozda geometrik figuralarni chizish – bolalar ongida geometrik tasavvurni rivojlantirishga omil bo’ladi. Bunday sharoitda materiallarning turli rangi, o’lchamlari tekislikdagi holatini nazarda tutmagan holda figuralarni shunday tanlash kerakki, bolalar ularning asosiy belgilarini aniqlay olishlari kerak. Diqqatni shunga qaratish kerakki, o’quvchilar geometrik figuralarning barcha sifatlarini ajrata bilsinlar. Bu figuralar tasavvurning to’g’ri bo’lishiga yordam beradi. Masalan, to’g’ri to’rtburchakni o’rganish jarayonida bolalarning ikki asosiy sifati – to’rtburchak ekanlii va burchaklari to’g’ri ekanligini tushunib echishlari kerak. Bu jarayon uchun biz o’quvchilarga maxsus slaydlayr yordamida tushuntirish metodikasini ishlab chiqdik. Maxsus dastur yordamida figuralarni chizish usullari taqdimotlar asosida namoyish etildi.

1-sinfda beriladigan ma’lumotlar: Nuqta, to’gri chiziq, kesma tushunchalari bilan o’quvchilar tanishadilar. Bularni tushuntirish jarayonida turli shakllardan foydalaniladi. Masalan:




Ushbu rasmlarni ko’rib o’quvchi maktabgacha ta’lim muassasalarida ega bo’lgan bilimlariga asoslanib to’rtburchak, uy kabi javoblarni berishi mumkin.

Shaklarni chizish, o’lchash uchun o’quvchilarga santimetr, metr va detsimetr tushunchalari beriladi:




Mashq bajarish uchun bir kesmani o’lchash vazifasi beriladi:




Har bir bo'lim tugagandan so'ng mustahkamlash uchun mashqlar beriladi. O'quvchilarda geometriyanig boshlang'ich tushunchalarini mustahkamlash uchun quyidagi vazifalar beriladi:







Keyingi mashg'ulotlarda to'g'ri chiziq haqida tushunchalar beriladi




Mavzuni yanada mustaxkamlash uchun o'quvchilarga shakllar tomonlari uzunliklarini o'lchash vazifasi beriladi:

Ko'pburchaklarning tomonlarini o'lchang:



Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarga shakllar, ularning farqlarini tushuntirish maqsadida quyidagi vazifa beriladi:

Shaklning qaysi birida burchak yo'q?



...i tops... ...ajaring.

a) nechta shakllar borligini ayting,

b) har qaysi shakl nima deb ataladi?




O'quvchilarda shakllar tasavvurini mustaxkamlash uchun qog'ozni buklash yo'li bilan shakllar yasash vazifasini beriladi:



1-sinfda figuralar va ularning nomlari bilan dastlabki tanishtirish yakunlanihi kerak, bu ish atrofdagi moddiy narsalar, figuralarning tayyor modellari va tasvirlari yordamida bajariladi. O'quvchilarda asta-sekin figuralarning tayyor modellari va tasvirlari yordamida bajariladi. O'quvchilarda asta-sekin figuralarni o'rganish sxemasi, ularnin har bir figura xossalarini o'zlashtirishlarini osonlashtiruvchi analiz va sintez qilish sxemalari tarkib topadi, ya'ni geometrik rivojlanishning eng yuqori bosqichiga o'tish amalga oshadi.

Geometrik figuralarni taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish usuliga ko'proq o'rin berish kerak. I sinfda o'quvchilar figuralar to'plamidan doiralar to'plamini, uchburchaklar to'plamini ajratadilar.

**1.2. 2-sinf Matematika darslarida geometrik elementlarni berilishi.**

2-sinf boshida o’quvchilarda 1-sinfda olgan bilimlarni takrorlab yodga olish maqsadida quyidagi vazifalar beriladi:




Takrorlashlardan so’ng o’quvchilarga burchak tushunchasi beriladi:



Bular to’gri burchaklar.

Bular to’g’ri burchaklar emas.

Mavzuni mustahkamlash uchun misol beramiz: To’g’ri burchaklarni aniqlang?




To’g’ri to’rtburchak tushunchasi kiritiladi. Avval o’quvchilarga ko’pburchaklardagi to’gri burchaklarni aniqlash uchun misol beramiz:



Endi hamma burchaklari to’giri bo’lgan to’rtburchaklarga misol keltiramiz:



Bular to’g’ri to’rtburchaklar.

*Ta’rif:* Hamma burchaklari to’g’ri burchak bo’lgan to’rtburchak to’g’ri to’rtburchak deyiladi.

O’quvchilar to’g’ri to’rtburchakni boshqa shakllar bilan farqlarini yaxshiroq tushunishlari uchun quydagi savolni beramiz: To’g’ri to’rtburchak boshqa to’rtburchaklardan nimasi bilan farq qiladi?

Mavzuni davom ettirib o’quvchilarga misol echtiramiz:

To’g’ri to’rtburchaklarni toping va ularning tartib raqamlarini yozing?




Geometriya elementlarida perimetr tushunchasi kiritiladi. To’g’ri tortburchakning ikkita qarama qarshi tomoni qizil rangga, qolgan qarama-qarshi tomoni ko’k rangga bo’yalgan. Qog’ozdan xuddi shunday to’rtburchak qirqing va qarama-qarshi tomonlarni buklash yo’li bilan taqqoslang.

To’g’ri tortburchakning har qaysi tomoni uzunligini o’lchang va yozing. To’g’ri to’rtburchakning hamma tomonlari uzunliklarini yig’indisi nimaga teng?



*Ta’rif:* To’rtburchakning hamma tomonlari uzunliklari yig’indisi bu to’rtburchakning *perimetr*idir.

Ta’rifni o’quvchilar tushunishlari uchun perimetrni hisoblashga doir misol beramiz:







Hamma tomonlarining uzunligi teng bo’lgan to’g’ri to’rtburchakni toping. Bular kvadratlar. Ularning tartib raqamlarini ko’chirib yozing.




Daftaringizga shunday kvadrat chizing va uning perimetrini toping:



O’quvchilarga kvadrat va to’g’ri to’rtburchaklarning farqli tomonlarirni tushuntirish uchun savollar berib ko’ramiz:

Bu shakl - to’rtburchak Bu shakl - to’rtburchak





Nega? Nega?

a) To’rtburchakning nechta uchi bor? a) To’rtburchakning nechta uchi bor?
b) Uning burchaklari nechta? b) Uning burchaklari nechta?
d) Ular qanday burchaklar? d) Ular qanday burchaklar?
e) Tomonlari nechta? e) Tomonlari nechta?
f) Ikkila to’rtburchak tomonlarining uzunliklarini o’lchang. Ularning tomonlari uzunliklari haqida nima deyish mumkin? To’rtburchaklarning qarama-qarshi tomonlari uzunliklari qanday?
g) Bu to’rtburchak nima deb ataladi? g) Bu to’rtburchak nima deb ataladi?

Bu savollarga javob berib o’quvchilar kvadrat va to’g’ri to’rtburchak farqini bilib oladilar.

Shakllarni farqlash uchun o’quvchilarga quyidagi misollarni keltiramiz:

Shaklni tuzishda nechta uchburchak, nechta kvadratdan, to’g’ri to’rtburchakdan, nechta doiradan foydalanilgan?



Har qaysi shaklda nechtadan to’rtburchak bor?



Rasmdan 5 ta uchburchak toping:



Rasmdan 5 ta to’rtburchak toping?



Daftaringizga shunday ikkita to’rtburchak chizing va ularda bir kesmani shunday o’tkazingki:

a) bitta to’g’ri to’rtburchak va bitta uchburchak hosil bo’lsin;
b) bitta kvadrat va boshqa to’rtburchak hosil bo’lsin:







O’quvchilarni o’lchov birliklari bilan tanishtirishni davom ettiramiz:

Millimetr – detsimetr, santimetrdan ham kichik o’lchov birligidir.




Chizg’ichdagi bir santimetrni ko’rsating. U nechta teng bo’lakka bo’lingan? Har bir bo’lak bir millimetrga teng. 1 sm 10 millimetr bo’ladi.

1 sm = 10 mm

Millimetrda o’lchashni o’rganish uchun o’quvchilarga misollar beramiz:

*CD* kesmaning uzunligi ☐ sm ☐ mm ga teng.



*AB*, *CD*, *MK* kesmalarning uzunliklari qancha? Har bir kesmaning uzunligini millimetrlarda yozing:




Uzunligi 9 mm, 7 mm, 2 sm 3 mm, 4 sm 6 mm bo’lgan kesmalar chizing.

N a m u n a: $PE = 2$ sm 3 mm.
$PE = 23$ mm.

Shaklda nuqtalar lotin alifbosining bosh harflari bilan belgilangan. Doiradan tashqarida yotgan nuqtalarni, doira ichida yotgan nuqtalarni ayting.




*AB* kesmani *CD*, *BK* va *OC* kesmalar bilan sirkul yordamida taqqoslang:




Chizmada nechta uchburchak bor? Nechta to‘rtburchak bor? Bu shakllar nima deb ataladi? Ularning tomonlarini o‘lchang. To‘g‘ri burchaklarni toping va ularning nomlarini yozing:




Shunday beshburchaklar chizing. Birinchi beshburchakda shunday bitta kesma o‘tkazingki, bitta uchburchak va bitta to‘rtburchak hosil bo‘lsin, ikkinchisida esa ikkita to‘rtburchak hosil bo‘lsin:



Tomonlari 3 sm 5 mm va 4 sm 5 mm bo’lgan to’g’ri to’rtburchak chizing. Uni harflar bilan belgilang va qarama-qarshi tomonlarini ayting.

O’quvchilarga yodda tutishlari uchun quyidagi ma’lumotni beramiz:

**To’g’ri to’rtburchakning qarama-qarshi tomonlari teng.**

Matematika darslarini davom ettirib o’quvchilarga aylana nima ekanligini tushuntiramiz. Quyidagi rasmda doira tasvirlangan. Doiraning chegarasi bo’lgan chiziq aylana deb ataladi. Aylanani sirkul bilan yasashadi. Sirkulning ignasi turadigan *O* nuqtani aylana markazi deyiladi. *OA* kesmani doira radiusi deyiladi.




*OA* radiusining uzunligini o’lchang.

...larga yarim tushunchasini misollar bilan beramiz.

1) Rasmda tasma 2 ta teng qismga (2 ta yarimtaga) bo’lingan.



**Yarim – bu butu**

2) To’g’ri to’rtburchak shakldagi qog’oz varag’ini teng ikki buklang. Varaqning yarmini ko’rsating. Shu usul bilan doiraning yarmini ko’rsating.

Rasmda uzunligi 9 sm va 8 sm bo’lgan ikkita tasma tasvirlangan. Birinchi tasma teng 3 qismga, ikkinchisini esa teng 4 qismga bo’lindi. Tasmaning uchdan biri; to’rtdan biri nimaga teng?





**Tasmaning to’rtdan bir qismi chorak deyiladi.**

Rasmda doiraning uchdan bir qismini, to’rtdan bir qismini va yarmini ko’rsating.

Shakllarning yuzi.




1-rasmda doira to'rtburchak ichiga to'la joylashgan; 2-rasmda to'g'ri to'rtburchak oltiburchak ichiga to'la joylashgan. Bu doiraning yuzi to'rtburchak yuzidan kichik, to'g'ri to'rtburchakning yuzi esa oltiburchakning yuzidan kichik ekanini bildiradi. Yuz-bu o'lchash mumkin bo'lgan kattalik.

*Topshiriq:* bu shakllarning yuzlarini ko'zda chamalab taqqoslang:



To'g'ri to'rtburchaklar yuzlarini ko'z bilan chamalang. Qaysi shaklning yuzi eng kichik (katta)?



Kattalik (miqdor)larni o'lchash uchun o'lchov birliklari tanlab olinadi. Uncha katta bo'lmagan yuzlar kvadrat santimetrlar bilan o'lchanadi. Kvadrat santimetr tomonlari 1 sm dan bo'lgan kvadratning yuzi. "Kvadrat santimetr" so'zi sonlar.

Shakllarning yuzini topish deganda shu shaklni ajratish mumkin bo'lgan kvadrat santimetrlar sonini topish tushuniladi. Masalan:

Har bir shakldagi santimetrlarni sanang. Har bir shaklning yuzi nimaga teng?






To'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblash uchun uning bo'yini va enini bir xil birliklarda o'lchab, hosil bo'lgan sonlar o'zaro ko'paytiriladi.

Masalan:







2-sinfda o'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarga takrorlash uchun quyidagi vazifalarni beramiz:

Qaysi kesma vertical, gorizontal, og'ma chizilgan?



*A* *D*

